

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi
Birinchi vitse-prezidenti,
Xarid komissiyasi raisi



R. S. Irmatov

2024-yil “ ”

**O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimidagi Milliy futbol makrazi tuzilmasidagi
Futbol terma jamoalar markazi uchun fitnes-uskunalar to‘plamlarini xarid qilish
bo‘yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Nomi	Bajariladigan ishlar
1	Buyurtmachi	O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi
2	Moliyalashtirish manbai	“O‘zbekiston futbolini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan
3	Tovarni sotib olishdan ko‘zlangan maqsadlar	Terma jamoa a‘zolarining jismoniy holatini yaxshilash, reabilitatsiya qilish va yuqori darajaga olib chiqish
4	Xarid amalga oshirilayotgan loyiha uchun asoslar	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 apreldagi PQ-115-son va 2024 yil 19 iyuldagi PQ-273-son qarorlari
5	Tovarni sug‘urtalash zarurati bo‘yicha talablar	Talab etiladi
6	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, Islom Karimov ko‘chasi 98A
7	Tovar nomi	Fitnes-uskunalar to‘plamlari
8	Trenajerlar toplami: texnik tavsifiga qo‘yiladigan talablar	Fitnes-uskunalarini yetkazib berish bo‘yicha texnik topshiriq 1. Umumiy qoidalar 1.1. Maqsad: Sport zalini individual va guruh mashg‘ulotlari, shuningdek, reabilitatsion va funksional mashqlarni o‘tkazish uchun sifatli fitnes-uskunalar bilan jihozlash. 1.2. Yetkazib beruvchi uchun talablar: <ul style="list-style-type: none">• Kamida 5 yillik shunga o‘xshash uskunalarini yetkazib berish tajribasiga ega bo‘lishi.• Ishlab chiqaruvchidan tasdiqlangan sertifikatlar va dilerlik shartnomalariga ega bo‘lishi.• Kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatish, shuningdek, xodimlarni uskunalar bilan ishlashga o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lishi.

1.3. Uskunalarga qo'yiladigan umumiy talablar:

- Barcha trenajyorlar yangi, avval foydalanilmagan bo'lishi.
- Xavfsizlik va gigiyena normalariga muvofiq (CE, ISO yoki ekvivalent sertifikat) bo'lishi.
- Yuqori chidamlilik, mustahkamlik va intensiv tijorat sharoitida ishlash imkoniyati.
- Rus tilida foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmalar bilan ta'minlash.
- Kamida 12 oy (yaxshisi 24 oy) kafolat muddati.

2. Uskunalar ro'yxati va texnik xususiyatlari

2.1. Yugurish yo'lakchasi

- Tur: Tijoriy sinfdagi elektr yugurish yo'lakchasi.
- Dvigatel: Kamida 4,0 ot kuchi (uzluksiz rejimda), jim ishlaydigan inverter motor.
- Tezlik diapazoni: 0,8 dan kamida 22 km/soat gacha.
- Nishablik burchagini o'zgartirish: 0% dan kamida 15% gacha, elektr boshqaruv yordamida.
- Konsol: Sensorli yoki tugmali displey: tezlik, vaqt, masofa, yurak urish tezligi, kaloriyalarni ko'rsatish. Yurak urish tezligini telemetrik usulda o'lchash (ko'krak datchigi bilan moslik).
- YUGURISH matosi: amortizatsiyalangan, chidamli.
- Maksimal foydalanuvchi vazni: kamida 200 kg.
- Quvvat manbai: 220V/50Gts elektr tarmog'i.
- Qo'shimcha: Idish va gadjetlar uchun ushlagich.

2.2. Mexanik yugurush yo'lakchasi

- Tur: Motorisiz, egrilangan yugurish yo'lakchasi.
- Qarshilikni sozlash: Ichki mexanik yoki magnit tizimi orqali yuklamani o'zgartirish.
- Turli ushlash pozitsiyalari uchun ergonomik tutqichlar.
- Yuqori chidamli mato, intensiv tijoriy foydalanish uchun mo'ljallangan.
- Parametrlarni kuzatish: vaqt, masofa, tezlik, quvvat (vatt), yurak urish tezligi (ko'krak datchigi bilan).
- Maksimal foydalanuvchi vazni: kamida 200 kg.

2.3. Velotrenajer

- Tur: Tijoriy sinfdagi spin-velotrenajyor.
- Yuklama tizimi: Friksion yoki magnit, qarshilikni silliq sozlash imkoniyati.
- O'rindiq va rulning vertikal/ gorizontal sozlashi, turli jismoniy parametrlarga moslash.
- Mustahkam po'lat karkas, korroziyaga qarshi qoplama bilan.
- Ikkita tomonlama pedal (SPD/platforma).
- Maksimal foydalanuvchi vazni: kamida 160 kg.

2.4. Gorizontal oyoq bosish – tibbiy/ reabilitatsion maqsadlar uchun

- Tur: Gorizontal oyoq bosish trenajyori, harakat biomexanikasini moslashtirish imkoniyati.
- O'rindiq suyanchig'i va platforma holatini sozlash.
- Tijoriy vazn steki yoki diskli mexanizm, yopiq korpusda.
- Harakatning silliq va xavfsiz bajarilishi, cheklangan imkoniyatli foydalanuvchilar uchun qulaylik.
- Boshlang'ich pozitsiyani aniq sozlash imkoniyati.

2.5. Oyoqlarni bukish – tibbiy maqsadlar uchun

- Holatni o'zgartirish imkoniyati: yotgan yoki o'tirgan holda bukish (modelga qarab).
- To'liq amplituda bo'ylab silliq yuklama taqsimoti.
- Oyoq uzunligiga moslash uchun sozlanadigan valiklar.
- Ishonchli vazn yoki diskli tizim.

2.6. Oyoqlarni to'g'rilash – tibbiy maqsadlar uchun

- Ergonomik o'rindiq, suyanchiq burchagini sozlash.
- Baldirlar uchun sozlanadigan tayanch valiklar.
- Yuklamaning silliq taqsimoti, tanani barqaror ushlab turish uchun tutqichlar.
- Mexanizmning silliq harakati, qarshilikni aniq sozlash imkoniyati.

2.7. 4 ta blokli kabel stansiyasi

- Tijoriy darajadagi po'lat karkas, himoya qoplamasi bilan.

- Kamida 4 mustaqil ish stansiyasi (masalan: yuqoridan tortish, pastdan tortish, krossover, funktsional tortish).
- Bloklarning balandligini sozlash imkoniyati (agar konstruksiyada nazarda tutilgan bo'lsa).
- Himoya qoplamali vazn steklari, kilogrammlarda ko'rsatilgan og'irlik.
- Tutqichlar sirpanishga qarshi qoplama bilan.

2.8. Smit mashinasi

- Yuqori mustahkamlikka ega yo'riqnoma relslar, silliq harakatni ta'minlash.
- O'rnatilgan xavfsizlik tutqichlari.
- Olimpiya disklari bilan ishlash imkoni.
- Korroziyaga qarshi qoplama, maksimal darajada silliq siljish.

2.9. Olimpik yarim ramka

- Shtanga tutqichlari va xavfsizlik tutqichlarini balandlik bo'yicha sozlash imkoniyati.
- Disklarni saqlash uchun ilgaklar.
- Qo'shimcha aksessuarlarni (turnik, arqon, kamarlar) o'rnatish imkoni.

2.10. Funktsional aksessuarlar to'plami

- Funktsional mashg'ulotlar uchun to'plam: rezina lentalar, tibbiy sharchalar, muvozanat platformalari, Core Bag, to'lqin-arqonlar va boshqalar.
- Aksessuarlar tijoriy darajadagi mustahkamlikka ega bo'lishi:
- Barcha jihozlar sertifikatlangan, sirpanishga qarshi sirt va qulay tutqichlarga ega.

2.11. Basseynda foydalaniladigan akvavelotrenajyor

- Zanglamaydigan po'lat yoki dengiz aluminiyidan yasalgan, xlorlangan suvga chidamli.
- O'rindiq va rulni balandlik bo'yicha sozlash.
- Havzaga zarar bermaydigan, sirpanishga qarshi rezina oyoq tayanchlari.
- Pedallar yalangoyoq yoki akva-poyabzalda foydalanish uchun mos.
- Texnik xizmat uchun suvdan oson chiqarish imkoniyati.

		<p>2.12. Suvda foydalaniladigan yugurish yo‘lakchasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Zanglamaydigan po‘lat yoki alyuminiy qotishmasidan mustahkam konstruksiya, sirpanishga qarshi mato bilan. • Dvigatelsiz (foydalanuvchining harakati hisobiga ishlaydi). • Yuklamani sozlash imkoniyati (kerak bo‘lsa, gidrodinamik qarshilik orqali). • Suvga tushirish va chiqarish oson, korroziyaga qarshi konstruksiya. <p>2.13. Gantellar, disklar va shtangalar</p> <p>Gantellar va disklar urethan qoplamalar bilan qoplangan bo‘lishi, yuqori sifatli bo‘lishi ta’lab qilinadi.</p>
9	Ijrochiga talablar qo‘yiladigan	<p>Yetkazib berilayotgan tovar ushbu texnik topshiriqda ko‘rsatilgan minimal ko‘rsatgichlarga (to‘plamga) o‘xshash/muqobil yoki undan yuqori bo‘lishi mumkin (xarid qilinayotgan tovar vazifasidan kelib chiqqan holda).</p> <p>Ijrochi ajratilgan byudjet doirasida to‘liq jihozlangan va kerakli konfiguratsiyadan foydalanish imkonini beruvchi tovar taqdim etishi lozim.</p>
10	Tovarning markirovkasiga, uni qadoqlash, yuklash va tashishga talablar qo‘yiladigan	<p>Trenajerlar to‘plami yorliqlangan (markirovka qilingan) bo‘lishi va yorliqda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tovarning nomlanishi (modeli); - tovarni ishlab chiqaruvchining nomlanishi; - tovarning seriya raqami; <p>Tovarning yorlig‘i o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida bo‘lishi lozim.</p> <p>Tovarning o‘lchamlari va qadoqlanishi belgilangan xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchining texnik xususiyatlariga mos kelishi va yetkazib berish paytida tovarning to‘liq xavfsizligi ta’minlanishi kerak.</p> <p>Qadoqlar ekologik toza va chidamli materialdan tayyorlanishi kerak.</p> <p>Har bir qadoqlash qog‘ozi qadoqning tashqi tomoniga yopishtirilgan bo‘lishi va quyidagilar bilan belgilanishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - yetkazib beruvchining /yuk jo‘natuvchining nomlanishi va manzili; - hajmi (sm); - sof og‘irligi (kg.) / yalpi og‘irligi (kg.). <p>Trenajorlarni har qanday transport vositasida yetkazib berish mumkin.</p>

		Qadoqlangan trenajorlarni transport vositasida aralashib ketmasligini inobatga olib joylashtirilishi lozim.
11	Tovarning yangi, avval ishlatilmagan, foydalanilmagan bo'lishi to'g'risidagi ko'rsatma	Tovar va uning qismlari yangi bo'lishi kerak. Avval ishlatilmagan va foydalanilmagan bo'lishi lozim.
12	Tovarning qismlariga qo'yiladigan talablar	Sotib olingan tovarlar (shu jumladan aksessuarlar) yangi bo'lishi kerak. Avval ishlatilmagan va foydalanilmagan bo'lishi lozim.
13	Tovarga xizmat ko'rsatish va uni ekspluatatsiya qilishga qo'yiladigan talablar	Tovar va uning qismlari zamonaviy ekologik toza mahsulotlardan tayyorlangan bo'lishi kerak: - xalqaro standartlar va ekologik normalarga muvofiq bo'lishi; - yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lishi; - mexanik ta'sirlarga chidamli bo'lishi; - harorat o'zgarishiga chidamli bo'lishi kerak.
14	Enegiya ta'minotiga qo'yiladigan talablar	Tovar nominal kuchlanishi $220V \pm 10\%$ va chastotasi 50 Hz bo'lgan umumiy tarmoqdan quvvatlanishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.
15	Topshirish va qabul qilish tartibi	Tovarni qabul qilish yetkazib berilgan tovarlarning qadoqlash hujjatlari hamda ushbu texnik texnik topshiriq shartlariga muvofiqligi bo'yicha amalga oshiriladi. Qabul qilish natijalariga ko'ra ikki tomon ma'sul vakillari (komissiyasi) ishtirokida tovarning topshirish va qabul qilish dalolatnomasi imzolanishi lozim.
16	Saqlashga bo'lgan talablar	Tovar quruq, isitiladigan xonada havo harorati $+5^{\circ}$ darajadan $+45^{\circ}$ darajagacha, nisbiy namlik 80% gacha bo'lgan haroratda saqlanishi kerak. Tovar saqlanadigan tekislik to'g'ri bolishi, balandligi minimum 2.4 metrni tashkil etishi kerak.
17	Tovarning texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha talablar	Yetkazib berish uchun taklif etilayotgan tovarlar O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan me'yoriy-texnik hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak (ishlab chiqarilgan mamlakat uchun qabul qilinadigan tan olingan standart yoki ishlab chiqaruvchining me'yoriy-texnik hujjatlari mavjud bo'lmaganda). Bunday standartlar tegishli idoralar tomonidan chiqarilgan eng oxirgi bo'lishi kerak.
18	Sozlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha talablar	Uskunalar bilan ishlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatish imkoniyati.
19	Xodimlarni o'qitish bo'yicha talablar	O'qitishga bo'lgan talablar mavjud.
20	Tovar bilan birga beriladigan hujjatlarga talablar	Tovarni yetkazib berishda topshiruvchi buyurtmachiga quyidagi texnik va yuk hujjatlarini taqdim etishi lozim:

		<p>- qurilmani ishlatish bo'yicha yo'riqnoma/foydalanuvchi qo'llanmasi;</p> <p>- qurilmaning pasporti yoki boshqa qo'llanmalar;</p> <p>- qadoqlash qog'ozlari: asl nusxasi;</p> <p>- Buyurtmachi nomiga jo'natilgan tovarlarning umumiy qiymati miqdori uchun hisob-faktura (invoys).</p>
21	Kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar	Kafolat muddati tovar qabul qilingan sanadan boshlab kamida 60 oyni tashkil qilishi amal qilishi kerak. Kafolat muddati tugagach – kafolatdan keyingi xizmat va ehtiyot qismlar yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish imkonidir. Ishlab chiqaruvchidan tasdiqlangan sertifikatlar va dilerlik shartnomalariga ega bo'lishi. Shuningdek, xodimlarni uskunalar bilan ishlashga o'qitish imkoniyatiga ega bo'lishi.
22	Ta'mirlashga bo'lgan talablar	Kafolat muddati davri mobaynida tovarda nosozliklar aniqlangan taqdirda, nosozliklar yuzasidan tomonlar o'rtasida dalolatnoma (akt) tuziladi va imzolangan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida yetkazib beruvchi nosoz butlovchi qismlarni yoki bloklarni o'z mablag'lari hisobidan almashtirishi yoki ta'mirlab berishi shart. Kafolat muddati davri mobaynida tovarda nuqsonlar aniqlangan taqdirda, nuqsonli qismlar yuzasidan tomonlar o'rtasida dalolatnoma (akt) tuziladi va imzolangan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida yetkazib beruvchi nuqsonli butlovchi qismlarni yoki bloklarni o'z mablag'lari hisobidan almashtirishi yoki ta'mirlab berishi shart.
23	Tovarning yaroqlilik muddati, saqlash muddati, sifat kafolatlariga qo'yiladigan talablar	5 yil
24	Xavfsizlikka bo'lgan talablar	O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan yong'in, sanitar va elektr xavfsizligi, shuningdek, elektromagnit moslashuvchanlik norma va standartlari talablari va me'yorlariga muvofiq bo'lishi kerak.
25	Tovarning ishlab chiqarilgan yiliga qo'yiladigan talablar	2024 yildan oldin emas
26	Yetkazib berish muddati	Oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng 90 ish kuni
27	Yetkazib berish miqdori, to'plami, manzili va muddatiga bo'lgan talablar	<p>Trenajerlar to'plami - 37 nomenklatura</p> <p>Trenajerlar to'plami jamlanmasi keltirilgan texnik talablarga muvofiq.</p> <p>Yetkazib berish shartlari (manzili):</p> <p>- mahalliy yetkazib beruvchilar uchun:</p> <p>Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, «G.T. Xvan» MFY, Manaviyat ko'chasi 83-uy (soliq va bojxona to'lovlari/bojlarini hisobga olgan holda);</p>

	- xorijiy yetkazib beruvchilar uchun: CIP Toshkent, tamojnya post Tovarniy, post kodi 72240 (Incoterms 2022).
--	---





